



Tadqiqot UZ



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**30 NOYABR
№34**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 34-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
4-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
34-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-4**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
34-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-4**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)

КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 34-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 9 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ
ЖАМИЯТИМИЗДА ТУТГАН ЎРНИ**

1. Nurmetova Mavluda Melsovna
SIYOSIY MEDIATSIYA STRATEGIYALARI 7



СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДА ТУТГАН ҶРНИ

СИЙОСИЙ МЕДИАТСИЯ СТРАТЕГИЯЛАРИ

Nurmetova Mavluda Melsovna,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

tayanch doktoranti

Telefon: +998(90) 6488122

e-mail: mavluda_91@mail.ru

Annotatsiya. Siyosiy mediatsiya xalqaro maydonda yuzaga keladigan nizo va to'qnashuvlarni boshqarish va hal qilishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada siyosiy mediatsiya jarayonida mediator tomonidan qo'llaniladigan strategiyalarning turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: siyosiy mediatsiya, xalqaro nizo, nizoni hal qilish, mediator, mediatsiya strategiyalari.

Siyosiy mediatsiya xalqaro maydonda ikki yoki undan ortiq davlatlar o'rtasidagi nizolarni uchinchi tomon, ya'ni mediator ishtirokida boshqarish yoki hal qilish jarayonidir. Bu bevosita nizolashuvchi tomonlar va mediatorning roziligi asosida amalga oshiriladi. Nazariy jihatdan mediatorning vazifasi oson bo'lib tuyulishi mumkin, ammo amalda bu katta mas'uliyat va tajribani talab etadi. Xalqaro nizolarni hal etishda mediator bir biriga qarama-qarshi bo'lgan tomonlarni o'zaro muloqotga kirishishlariga ko'maklashadi, ularning e'tiborini nizoning eng asosiy masalalariga qaratadi va har ikkala tomonning manfaatlariga javob beradigan muqobil yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Ta'kidlash lozimki, nizolar bir-biridan kelib chiqishi hamda ishtirokchilarining tabiati bilan farq qilgani holda, mediator turlari va nizoni hal qilish jarayonida ular qo'llaydigan strategiyalar ham har xil bo'ladi. Xalqaro nizoga yechim topish jarayonida mediator tanlaydigan strategiya mediatsiya samarali bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy mediatsiya uchta bosqichdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqich kirish bo'lib, unda tomonlar uch tomonlama muzokaralarning tartib-qoidalarini belgilashadi hamda o'zlarining xohish va talablarini bayon qilishadi. Ikkinchi bosqichda mediator va nizolashayotgan tomonlar mavjud muammoni chuqur o'rganib, tahlil qilib, unga birgalikda yechim topishga harakat qilishadi. Uchinchi bosqichda esa uch tomonlama muzokaralarning natijasi e'lon qilinadi.

Vujudga kelgan xalqaro ziddiyatni boshqarish va hal qilish uchun mediator tomonidan, asosan uchta strategiya qo'llaniladi. Bular muloqot o'rnatish, jarayonni boshqarish hamda tomonlarni yo'naltirish yoki manipulyativ strategiyalardir [1].

Tomonlar o'rtasida muloqot o'rnatish strategiyasi mediatsiyaning eng kam darajasi bo'lib, bunda mediator passiv rolda ishtirok etadi. Mediatorning vazifasi tomonlar o'rtasida muloqot uchun hamkorlik o'rnatish va ularga ma'lumot yetkazishdan iborat bo'ladi. Ushbu strategiya cheklangan bo'lishiga qaramasdan, u nizo boshi berk ko'chaga kirib qolgan va ziddiyat chuqurlashgan vaziyatda juda qo'l keladi. Chunki bunday holatda tomonlar bir-biri bilan muzokara qilish kanallariga ega bo'lmay, to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish istagidan ham voz kechishlari mumkin. Tomonlar o'rtasidagi madaniy farqlar ham o'zaro tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Hatto muammoning o'zini va uning yechimini ham turlicha talqin qilayotgan va qarama-qarshi tarafni tushunish istagini bildirmagan vaziyatda mediatorning roli passiv bo'lishiga qaramasdan, uning ma'lumot yetkazuvchi sifatida jarayonda ishtirok etishi davlatlar o'rtasidagi ziddiyatni yengillashtirishga xizmat qiladi. Bu strategiyaning qo'llanilishini 1993-yil 13-sentabrda Isroil va Falastin Ozodlik Harakati o'rtasida imzolangan, Norvegiya passiv mediator rovida qatnashgan Oslo Kelishuvlari misolida ko'rishimiz mumkin [2].

Ushbu strategiyadan foydalanishda tomonlar mediator ishtirokida bi-biri bilan bevosita muzokaralar stoli atrofida o'tirishlari yoki to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatmasdan mediator



orqali murosaga kelishi mumkin. Muloqot o`rnatish strategiyasi davlatlararo ziddiyatlarni boshqarishda ishlatiladigan eng keng tarqalgan strategiya bo`lib, keyslarning deyarli 50% ida uchraydi [3].

Jarayonni boshqarish strategiyasida mediator uchrashuvlar jadvali, muzokaralar kun tartibini tuzish, vaqti, joyi va protokolni belgilash, OAVning jarayonni to`g`ridan-to`g`ri kuzatishiga yo`l qo`yish yoki yo`l qo`ymasligi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bu holatda, mavjud to`siqlarni bartaraf etish mediatordan kuch va o`ziga xos kreativ yondashuvni talab etadi. Bu usul ko`p hollarda qurolli to`qnashuvlar yuz bergan va tomonlar o`rtasidagi munosabatlar chigallashgan sharoitda samarali hisoblanadi. 1990-yillarda Bugenvildagi nizoni hal qilishda Yangi Zelandiya mediator bo`lib, unda aynan ushbu strategiyadan foydalanilgan.

Tomonlarni yo`naltirish yoki manipulyativ strategiya siyosiy mediatsiyaning eng qattiq va intensiv shakli bo`lib, unda mediator tomonlarni rag`batlantirish yoki majburlash yo`llari orqali nizoning yechimini o`zi shakllantirishga harakat qiladi. Bu usul, ko`p hollarda, nizo urushga aylangan, qurolli to`qnashuvlar yuz berayotgan vaziyatda zo`ravonlikni to`xtatish va tinch aholiga ziyon yetkazilishining oldini olish sharoitida ishlatiladi.

Tadqiqotchi Hopmanning ta`kidlashicha, faqat kuchli mediatorgina tomonlarni yo`naltirish yoki manipulyativ strategiyadan samarali ravishda foydalana olishi mumkin. Chunki kuch va hokimiyatga ega mediator, masalan, davlat, uch tomonlama muzokaralarni kerakli tomonga yo`naltirish hamda xalqaro muhitni manipulyatsiya qilish salohiyatiga ega bo`ladi [4]. Rag`batlantirish moddiy jihatdan yordam berish, masalan, mablag` ajratish, investitsiyalar kirgizish va h.k., majburlash esa iqtisodiy sanksiyalar e`lon qilish bilan qo`rqitish ko`rinishida namoyon bo`lishi mumkin.

Muzokaralar va mediatsiya jarayonini nazariy jihatdan o`rganishga o`zlarining beqiyos hissalarini qo`shgan olimlardan Berkovitch va Xyustonlarning fikriga ko`ra, tomonlarni yo`naltirish strategiyasi eng ko`p samarali natija bergan uslub hisoblanadi [5]. 1978-yilda Isroil va Misr o`rtasida Kemp-Devid kelishuvi amalga oshishida AQSH prezidenti Jimmi Karter jarayonni boshqarish strategiyasi bilan birgalikda aynan ushbu usuldan – tomonlarni yo`naltirish strategiyasidan ham foydalangan.

Siyosiy mediatsiyani o`rganish jarayonida tahlil qilingan misollardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bitta nizoda, vaziyatni inobatga olgan holda, yuqorida sanab o`tilgan strategiyalar yakka tartibda yoki birgalikda ham qo`llanilishi mumkin.

Xulosa o`rnida ta`kidlash joizki, siyosiy mediatsiya xalqaro munosabatlarda vujudga kelayotgan nizo va ziddiyatlarni boshqarish va hal qilish, urush va qurolli to`qnashuvlarni to`xtatish hamda tomonlarni murosaga kelishiga ko`maklashib, tinchlik o`rnatishda so`nggi yillarda eng keng tarqalgan va samarali natija berayotgan vositalardan biridir. Siyosiy mediatsiya jarayonida nizoning tabiati va turidan kelib chiqib, mos strategiya tanlash uni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda uchinchi tomonning mediator sifatidagi imidjiga ham ta`sir ko`rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Oishika Banerji, Role of mediation in international disputes. October 30, 2021. <https://blog.ipleaders.in/role-of-mediation-in-international-disputes/>
2. Hilde Henriksen Waage, Norway's Role in the Middle East Peace Talks: Between a Strong State and a Weak Belligerent. Journal of Palestine Studies. Vol. 34, No. 4 (Summer 2005), pp. 6-24. <https://www.jstor.org/stable/10.1525/jps.2005.34.4.6>
3. James A. Wall, Jr. John, B. Stark Rhetta, L. Standifer. Mediation: A Current Review and Theory Development. Department of Management University of Missouri-Columbia. https://www.researchgate.net/publication/249728527_MediationA_Current_Review_and_Theory_Development
4. Jonathan Wilkenfeld, Kathleen Young, Victor Asal, David Quinn. Mediating International Crises: Cross-National and Experimental Perspectives. June 2003. Journal of Conflict Resolution 47(3):279-301. https://www.researchgate.net/publication/237809757_Mediating_International_Crises_Cross-National_and_Experimental_Perspectives
5. James A. Wall, Jr. John, B. Stark Rhetta, L. Standifer. Mediation: A Current Review and Theory Development. Department of Management University of Missouri-Columbia. https://www.researchgate.net/publication/249728527_MediationA_Current_Review_and_Theory_Development

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 34-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(4-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000